



ETIMOLOGIK TAHLILGA OID TADQIQOTLAR VA ULARNING MAZMUNI

Sobirova N. Z.

Qarshi davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim kafedrasida doktoranti

Tayanch soʻzlar: ona tili, etimologiya, fan, tadqiqot, tahlil, yondashuv, tarix, taraqqiyot, grammatika.

Ключевые слова: родной язык, этимология, наука, исследование, анализ, подход, история, развитие, грамматика.

Key words: native language, etymology, science, research, analysis, approach, history, development, grammar.

Bizga ma'lumki, zamonaviy texnologiyalar va virtual aloqalar kuchayib borayotgan bir davrda kishilarning ona tilini o'rganishga nisbatan qiziqishlari va savodxonligi pasayib bormoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida keltirilgan quyidagi fikri diqqatga sazovor: "Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir" [1].

Bizningcha ushbu muammoni bartaraf etishning samarali yo'llaridan biri – o'quvchilarga boshlang'ich sinflardayoq ona tilini o'rganish motivatsiyasi, xususan, ona tili darslarida so'zlarning etimologiyasini o'rganishga nisbatan qiziqishini hosil qilishdir. Keyingi yillarda ta'lim sohasida ham boshqa sohalar kabi tezkor o'zgarishlar va integratsiya jarayoni ro'y bermoqda, bu esa o'z navbatida ko'plab davlatlar ta'lim tizimiga yangidan-yangi so'zlarning kirib kelishiga sabab bo'lmoqda. Albatta, bunday so'zlarning kirib kelishi lug'atlarning yo'nalishlari, shu jumladan darsliklar mazmuniga ham ta'sir



ko'rsatdi. Ushbu jarayon esa etimologiyaning dunyoda rivojlanishi va boyishi uchun imkoniyat yaratdi.

Etimologiya so'zi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, u haqiqat, so'zning asl va haqiqiy ma'nosi degan tushunchani ifodalaydi. Ko'proq ushbu termin tilshunoslikda qo'llaniladi. Biroq, o'quvchilarga ta'lim jarayonida ular uchun notanish va mavhum bo'lgan tushunchalarni anglatish orqali uni o'rab turgan atrof-olam narsa, voqea, hodisa, kishilar haqidagi tasavvur va bilimlar, tafakkur va nutq rivojlantirib boriladi. Shuningdek, o'quvchilarning so'zlarni etimologik izohini o'rganish orqali ma'naviyati va mantiqiy fikrlashi ham yuksalib boradi.

Etimologiya – so'zlarning kelib chiqishini o'rganadigan tilning bir qismi, so'zlarning kelib chiqishini aniqlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot usullari to'plami. “Qiyin” so'zlarni o'rganishning ilmiy usuli sifatida etimologik tahlilning asosiy vazifasi so'zning nafaqat “qanday” yozilishini, balki nima uchun shunday yozilishini ham tushunishdir.

Etimologiya (ἔτυμον - haqiqat va λόγος [logiya] - so'z; so'zning haqiqiy ma'nosi) -

so'z va morfemalarning kelib chiqishini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi;
so'zning kelib chiqishini aniqlashga qaratilgan tadqiqot usullari majmui;
so'zning kelib chiqishi.

“grammatika” ma'nosida ham qo'llangan. (19-asr tilshunosligi), [<https://uz.wikipedia.org/wiki/Etimologiya>]

Etimologiya - so'zning vaqt o'tishi bilan semantik ma'nosining kelib chiqishi va evolyutsiyasini, jumladan, uning tarkibiy morfema va fonemalarini o'rganuvchi ilmiy tadqiqotdir. Bu tarixiy tilshunoslik, filologiya va semiotikaning bir bo'limi bo'lib, qiyosiy semantika, morfologiya, pragmatika va fonetikaga tayanib, morfema, fonema, so'z yoki belgi olib yuradigan barcha ma'nolarning to'liq va xronologik katalogini yaratadi [<https://en.wikipedia.org/wiki/Etymology>].

Xorijiy olimlardan Arundhati Yamsani, Vilja Oja, R.Anttila, D. Harper, M.Webster, F.Khan, R. Mailhammer, R.Durkin, E.Partridge, J. Bronkhorst, C.Chiarcos, P. Axmetyanov kabilar etimologik yondashuv va etimologik tahlillarga doir tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Vilja Oja tomonidan olib borilgan tadqiqot ishida konseptual tamoyilga asoslangan etimologik izlanishlarning mohiyati o'rganilgan. U tadqiqot ishida lug'at tahlillari etimologik tadqiqotlarning tashkil etilishiga yordam berishini va bu boradagi tadqiqotlar tizimli tahlil asosida olib borilsa, samarali natijalarga erishish mumkinligi aytib o'tadi. U tadqiqot ishi jarayonida ayrim tillarning boshqa tillarga ta'sirini, ular o'rtasida o'xshashlik mavjudligini



asoslab berishga harakat qiladi. Masalan, eston tilidagi ranglarning atamaları nemis tilidagi soʻzlarga juda oʻxshashligi isbotlab beradi [<https://euralex.org/publications/etymological-studies-based-on-a-conceptual-framework>].

Anas Fahad Khan izlanishlarida Semantik Web asosida etimologik maʼlumotlarning ifodalanishi muammosi tadqiq qilingan. Tadqiqotchi etimologik axborotlarni Resource Data Framework (RDF) maʼlumotlar modelidan foydalangan holda modellashtirish imkoniyatlarini ochib beradi. Buning natijasida esa tadqiqotchi ontalex-limon modeliga asoslangan etimologik maʼlumotlarni ifodalash uchun yangi lugʻatni taklif qiladi.

Tadqiqotchi fikricha, etimologiya - odatda tarixiy soʻzlar (yoki boshqa til hodisalari) boʻlib, bevosita yoki bilvosita (boshqa oraliq etimonlar/turdoshlarni hisobga olish maʼnosida) tarixiy-lingvistik jarayonlarni, toʻgʻrirogʻi, shu turdagi lingvistik mexanizmlarni ifodalovchi munosabatlardir [2; 9].

Robert Mailhammer izlanishlarida esa leksik va strukturaviy etimologiya masalalari oʻrganilgan. Uning fikricha, etimologiya leksik elementlarni oʻrganish bilan shugʻullanadi. Shuningdek, etimologiya koʻproq maʼlum bir soʻz yoki tuzilma qanday paydo boʻlganligi haqidagi savol bilan bogʻliq tadqiqot yondashuvi sifatida ham tushuniladi. Natijada, etimologiya soʻzlarning kelib chiqishini (leksik etimologiyani), shuningdek, morfemalar va konstruktsiyalar (struktura etimologiyasi) kabi tarkibiy elementlarni ham oʻrganishi mumkin.

MDH olimlaridan E. Sevortyan, G. Blagova, S. Starostin, A. Dybo, O. Mudrak, O.N. Levushkina, T. V. Babushkina, O.P. Bagaydina, L.A. Vvedenskaya, N.P. Kolesnikov, N.V. Galinova, YE.L. Berezovich, S.A. Yeremina, T. L. Mironova, YE. A. Konkova, O.A. Tarasova, V.I. Abayev, L. A. Vvedenskaya, Y.V. Otkupshikov, N.M. Shanskiy, V.V. Ivanov, T.V. Shanskaya kabilar taʼlim jarayonida etimologik yondashuvdan foydalanishning turli jihatlarini tadqiq etishgan.

A. G. Kosov “Этимология и орфография: новые образовательные технологии” nomli maqolasida etimologiyaga taʼrif berar ekan, uni quyidagicha ifodalaydi: “Etimologiya soʻzlarning kelib chiqishi, asl maʼnosi, til tarixidagi soʻzlarning oʻzgarishini oʻrganuvchi tilshunoslikning (aniqrogʻi qiyosiy-tarixiy tilshunoslik) boʻlimidir. Etimologik tahlil jarayonida soʻzning zamonaviy va tarixiy tuzilishi solishtirilib, soʻzning leksik va morfemik tarkibidagi oʻzgarishlar aniqlanadi. Gap shundaki, turli fonetik oʻzgarishlar natijasida soʻzlar tildagi ajdodlari va qarindoshlari bilan aloqani yoʻqotadi, yaʼni deetimologizatsiya jarayoniga uchraydi [4; 6-89].

Shuningdek, olim etimologik tahlil haqida fikr yuritar ekan, uni soʻzni yoki uning oʻzagini genetik jihatdan boshqa soʻz bilan yoki uning oʻzagini asl soʻz

sifatida aniqlash, shuningdek, soʻzning boshqa tarkibiy elementlarini tarixan maʼlum boʻlgan tarkibiy elementlar bilan solishtirish uchun moʻljallangan tahlil usuli, deb taʼriflaydi.

Mamlakatimiz tilshunos olimlaridan Gʻ. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, H. Neʼmatov, Y. Tojiyev, T. Jumayev, O. Shukurov, H. Dadaboyev, U. Tursunov, A. Muxtorov, N. Axmedov, O. Axmedov, A. Primov, K. Rixsiyeva, A. Yesemuratov, T. Enazarov, H. Qudratullayev, Sh. Raxmatullayev kabilar tomonidan etimologik tahlilning ayrim jihatlari tadqiq etilgan.

Tilshunos olim T. Jumayev “Oʻzbek tili lisoniy sathlarining reliktolingvistik aspekti” mavzusidagi monografiyasida til etimologiyasi muammosini oʻrganar ekan, uning fikricha insonlar ijtimoiy hayotda foydalanadigan soʻzlar oʻz tarixi va ichki struktrasi, oʻziga xos murakkabliklariga ega. Shu boisdan ularni turli usul va muayyan fan mezonlari doirasida oʻrganish maqsadga muvofiqdir - deydi: “Insoniyat foydalanadigan zamonaviy tillarga zohiriy jihatdan yondashilganda, uning vujudga kelish jarayonlari, ichki strukturasi, tarixi va etimologiyasini, tarixiy etimologik qatlamlarga munosabatini birdan ilgʻab olish mushkul. Buning uchun tilga turli usul, uslub va, joiz boʻlsa, muayyan fan mezonlari asosida yondashish taqozo qilinadi” [3;208].

Shuningdek, T. Jumayev ushbu monografiyasida etimologiyaning mazmun-mohiyati va uning vazifasini quyidagicha izohlab beradi: “Etimologiya muayyan lisoniy birlikning shakllanish asoslarini bir qancha obyektiv va subyektiv dalillarga asosan (qiyosan) tahlil etadi va yagona xulosaga keladi; bu har doim shubhali va eʼtirozli boʻladi. Shu bois bu jihatga relikktivlik pozitsiyasida turib yondashish mohiyatga bir qadar yaqin borish, uning yuzaga kelish omillarini qatʼiyoq amalga oshirish imkonini beradi“ [3;10].

Tadqiqotchi, M. Xudayarova oʻzbek tilidagi taom nomlarini etimologik jihatdan tahlil qiladi. U oʻzbek shevalaridagi yuzdan ortiq taom nomlarini, xususan, qadimiy taom nomlarini xronologik tartibda oʻrganadi, shuningdek, ayrim xalq marosimlarining taom nomi bilan bogʻliqligini va hududiy tarqalishini aniqlaydi. Shu bilan birga, tadqiqotchi etimologiyasiga oid yangi qarashlarni bildiradi [7;15].

Koʻrinadiki, etimologiya qiyosiy tarixiy usullardan biri boʻlib, u fonetik qonuniyatlar, morfologik qoidalar, morfologik oʻzgarishlarga tayanib ish koʻrivchi loʻgʻatshunoslikning bir boʻlimidir. Etimologiya fani eng qiziqarli fanlardan biri hisoblanadi. Chunki, bu fan orqali oʻquvchilar nafaqat bugungi taraqqiyotga oid soʻzlar balki, tarix haqida ham bilimlarga ega boʻladilar. Bolalar kichik yoshligidan boshlab soʻzlarning maʼnosi, u nimani anglatishi haqida bilishni hohlaydilar va kattalarga koʻplab savollar beradilar. Bolalarning



bu kabi ehtiyojlari maktab ostonasiga qadam qo‘ygan kunlaridan boshlab qondiriladi. Ya’ni ular dars jarayonida lo‘g‘atlar yordamida o‘zlariga notanish bo‘lgan so‘zlarning ma’nosini tushuna boshlaydilar. Biroq, o‘quvchilar so‘zlarning kelib chiqishi, qaysi tildan kirib kelganligi, ayrim so‘zlardan yangi so‘zlarning paydo bo‘lganligi, ularning sinonimlari mavjudligini anglab yetmaydilar. Ana shunday jarayonda etimolik yondashuvdan foydalanish va o‘quvchilarga qanday qilib yangi so‘zlarning paydo bo‘lganligini anglatish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. // www.lex.uz <https://uz.wikipedia.org/wiki/Etimologiya>
2. Anas Fahad Khan. Towards the Representation of Etymological Data on the Semantic Web. Information 2018, 9, 304; doi:10.3390/info9120304
3. Жумаев Т. Ўзбек тили лисоний структурасининг реликтолингвистик аспекти (фонетик, лексик, морфологик сатх) / монография/ Т.Жумаев. Қарши: “Фан ва таълим нашриёти. 2021. 208 б.
4. Косов А.Г. Этимология и орфография: новые образовательные технологии. Инновационные технологии и электронное образование. Педагогический журнал Башкортостана. № 1.2023. С. 86-96.
5. Левушкина Ольга Николаевна. Этимологический анализ на уроках в начальных классах как средство обогащения словарного запаса учащихся : Дис. ... канд. пед. наук : 13.00.02 : Ульяновск, 2000 220 с.
6. Мадвалиев А. Ўзбек терминалогияси ва лексикографияси масалалари. –Тошкент: ЎМЭ, 2017. – Б. 214

РЕЗИОМЕ

Ushbu maqolada ona tilining qadriyat sifatida e’tirof etilishida etimologiya fanining o‘rni va ahamiyati hamda etimologik tahlillarga oid olib borilayotgan tadqiqot ishlari, ularning mazmuni, etimologiya fanining dolzarb masalalari yoritilgan. Shuningdek, maqolada etimologik tahlilga berilgan turli ta’riflar, yondashuvlar keltirib o‘tilgan.

РЕЗИОМЕ

В данной статье описаны роль и значение науки этимологии в признании родного языка ценностью, а также научные работы по этимологическому анализу, их содержание, актуальные вопросы науки этимологии. В статье также упоминаются различные определения и подходы к этимологическому анализу.

SUMMARY

This article describes the role and significance of the science of etymology in recognizing the native language as a value, as well as scientific works on etymological analysis, their content, and current issues in the science of etymology. The article also mentions various definitions and approaches to etymological analysis.